

TEXNIKA OLIY O'QUV YURLARIDA ZAMONAVIY TA'LIMNI JORIY ETISH**Abdullayeva Muxtasar Akmaljon qizi****(PhD) abdullayevamuxtasarxon91@gmail.com,****FDTU, Energetika muhandisligi kafedrası****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17586942>**

Hozirgi davrda texnika oliy o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — bu ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida malakali, ijodkor va texnik tafakkurga ega mutaxassislarni tayyorlash jarayoni ta'limning yangicha yondashuvlarini talab etadi. Shu bois, texnika oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, ilg'or axborot-kommunikatsiya vositalarini, virtual laboratoriyalarni, raqamli ta'lim platformalarini va masofaviy o'qitish tizimlarini tatbiq etish zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy ta'limni joriy etish texnika yo'nalishidagi talabalarning mustaqil o'rganish, ijodiy fikrlash, amaliy faoliyatda muammolarni hal etish, hamkorlikda ishlash va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv o'quv jarayonining sifatini oshiradi, o'quvchi-talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantiradi hamda xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Zamonaviylashuv, faqat texnika yoki texnologiyalar uchungina emas, balki bo'lajak muhandislardan ham zamonaviylikni talab qiladi. Ta'lim jarayonlarini to'g'ri tashkil etilishida birinchi talab - pedagogik yondoshuvlarni to'g'ri tanlash hisoblanadi. Ta'lim jarayonlarida pedagogik yondoshuvlar pedagogik texnologiyalar bilan boyitilib boradi.

Unga ko'ra, pedagogik texnologiya bu – o'qituvchining talabaga ta'lim jarayonlarining maqsadi asosida o'quv vositalari va o'qitish metodlari yordamida ta'sir ko'rsatishi, ya'ni bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini o'ziga qamrab oladi. Texnika yo'nalishlari talabalariga mutaxassisliklaridan kelib chiqib, o'quv jarayoniga pedagogik yondoshish lozim ekanligini hisobga olgan holda, o'qitiladigan har bir mavzu uchun aniq pedagogik reja tuzish lozim. O'qitilishi lozim bo'lgan mavzuga oid pedagogik reja, mavzuning maqsadga to'liq erisha olishini ta'minlaydi. Bu huddiki, manzilga tez va yaqin yetib borish uchun to'g'ri yo'l tanlanganidekdir.

Odatda, an'anaviy pedagogik texnologiyalar, zamonaviy pedagogik texnologiyarga o'tib bormoqda. Bugungi kunning so'nggi imkoniyatlari, yutuqlari va sharoitlariga tayanib, tezkorlik bilan o'zgarayotgan vaqtga mos zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar shakllantirilib, ulardan ta'lim jarayonlarida unumli qo'llash vazifalari yuklanmoqda. Masalan, mavzularni tanlash asosida tamoyillar asosida o'qitish masalalari tobora kengayib bormoqda.

Zamonaviy ta'limda an'anaviy pedagogik texnologiyalardan innovatsion texnologiyalar foydasiga siljish kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlar ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u o'rganishga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari fan yutuqlari va ilg'or tajribaga asoslangan. Shuning uchun ham, zamonaviy o'qitish usullari deyiladi. Texnika yo'nalishlarga mos ravishda mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik usullarning quyidagi jihatlar inobatga olinishi talab qilinadi:

- bo'lajak muhandis talabalarda texnika bilan ishlash, ya'ni texnika bilan muloqot qila olish imkoniyatini yarata oladigan oddiylikdan murakkab tomon o'qitilishga e'tibor qaratish;
- fanlardan nazariy bilim-ko'nikmalarni yetkazishni qiziqarli va eslab qolarli usullarini tanlash va qo'llash;
- o'qitish jarayonlariga texnikaning oxirgi yutuqlarini joriy qilgan holda, dars mashg'ulotlarini tashkil qilish;

- mashg'ulotlar davomida tegishli soha yutuq va ixtirolarini doimiy ravishda o'zlashtirilib borilishini tizimli yo'lga qo'yish;
- mutaxassislik fanlari mavzularini ishlab chiqarish bilan integratsiyalanishiga e'tibor qaratish;
- talabalarda texnik va tadqiqotli kompetensiyani shakllantirish imkoniyatini yaratish;
- o'qitiladigan zamonaviy pedagogik metodlar yordamida, texnika yo'nalishi talabalarida, texnika bilan ishlash qobiliyati va texnik tafakkurni shakllantirish.

Ta'lim jarayonlarida an'anaviy o'qitish usullaridan tortib, hozirgi zamonaviy usullari ham, didaktik vositalar bilan qo'llaniladi. Ushbu masalada didaktik vositalarni zamonga moslash, ulardan oqilona foydalangan holda ta'lim sifatini oshirish ayni vaqt talabiga aylanmoqda. Zamonaviylashtirish didaktik vositalarga kelganda, demak, qaysidirki vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi vositalarni axborot, texnika va innovatsiya yutuqlariga moslashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy oliy ta'limda turli didaktik vositalar keng qo'llaniladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. B. Elov, A. Dauletov, Y. Sucharitha, F. Khalilova, M. Latipova and M. Abdullayeva, "An Intelligent Traffic Management of Vehicles using Deep Learning Approach in Smart Cities," *2025 3rd International Conference on Integrated Circuits and Communication Systems (ICICACS)*, Raichur, India, 2025, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICICACS65178.2025.10967703.
2. Abdullaeva.M.A. (2022). IMPROVEMENT OF TRAINING OF SEMICONDUCTOR RELAY PROTECTION DEVICES BY NEW INTERACTIVE METHODS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(10), 28–33. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-03-10-05>
3. N. Akramova, S. Akhmedov, M. Mukhtorova, F. Nasretdinova, M. Abdullayeva and D. Dhabliya, "Leveraging Deep Learning for STEM Education in Higher Secondary Grades," *2025 World Skills Conference on Universal Data Analytics and Sciences (WorldSUAS)*, Indore, India, 2025, pp. 1-6, doi: 10.1109/WorldSUAS66815.2025.11198997.
4. N. Abdullayeva, A. Gofurova, M. Abdullayeva and D. Dhabliya, "Designing AI-Enhanced Educational Games for Cognitive Skill Development," *2025 World Skills Conference on Universal Data Analytics and Sciences (WorldSUAS)*, Indore, India, 2025, pp. 1-6, doi: 10.1109/WorldSUAS66815.2025.11199084.
5. Abdullayeva M. Development of new interactive methods suitable for teaching semiconductor relays //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 452. – C. 03015.
6. Muxtasar Abdullayeva, Texnika fanlarini samarali o'zlashtirishda mustaqil ta'limning ahamiyati. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi № 9 -son, 2023/12/15. 559-564